O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Xulosa qilganda ko'pgina sayohatchilar safari turizmiga moyil, chunki u konservativ harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi. Bu sayyohlarni tabiiy muhitga yaqinlashtirdi, shuningdek, hayvonlar va ularning atrofini muhofaza qilish talablari haqida tushuncha hosil qildi. Turizm va sayohatga bo'lgan talab tufayli talab tez o'sib boradi, bu kelgusi yillarda bozorning kengayishini oshiradi. Bundan tashqari, safari sayyohlik bozorining hashamatli segmenti ham sarguzasht, ham qulaylik izlayotgan aqlli sayohatchilarga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ro‘Ziyev, Bobir Akramovich, & Temirova, Layloxon Alisher Qizi (2023). QASHQADARYO VILOYATIDA SAFARI TURIZMINI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 24 , 213-217.

2. Ruziyev Bobir,Temirova Laylokhan, & Ruziyev Bobir,Temirova Laylokhan. (2024). EXPLORING THE SPECIFIC CHARACTERISTICS AND DEVELOPMENT TRENDS OF SAFARI TOURISM. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(03).

3.https://www.globenewswire.com/newsrelease/2024/01/15/2809033/0/en/Safari-Tourism-Market-to-Grow-at-6-8-CAGR-Expected-to-Reach-USD-69-9-Bn-by-2033-Marketresearch-biz-Report.html

4.https://www.unwto.org/news/international-tourism-to-end-2023-close-to-90-of-pre-pandemic-levels

5.https://marketresearch.biz/purchase-report/?report_id=42691

6.https://www.linkedin.com/company/marketresearch-biz/

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLARNING O‘RNI

Sagiyeva Moldir Orazbay qizi
Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti
Ajibaeva Marjangul Kalbaevna
Biznes va tadbirkorlik Oliy maktabi magistranti
sagieva1191@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur vosita sifatida klasterli yondashuv taklif etiladi. Shuningdek, Qoraqalpog’iston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlikning hududiy iqtisodiyotdagi o’rni aniqlangan.

Kalit so‘zlar: klaster, kichik biznes, tadbirkorlik, kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.

Zamonaviy iqtisodiyotda kichik biznes va tadbirkorlikning ahamiyati barqaror kuchayish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Sof raqobat muhitini yaratish, innovatsion faoliyatni qo’llab-quvvatlash, aholi bandligini ta’minlash, ijtimoiy tengsizlikni

yumshatish kichik korxonalarning asosiy vazifalaridan bo’lib hisoblanadi. Kichik biznesning o'ziga xos moslashuvchanligi, boshqaruvning soddaligi va arzonligi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni rag'batlantirish, uning yutuqlarini joriy etishni tezlashtirish, jamiyatning muhim moliyaviy va ishlab chiqarish resurslarini safarbar etish qobiliyati muhim iqtisodiy, monopoliyaga qarshi, innovatsion va ijtimoiy rolni belgilaydi [1].

Kichik biznes va tadbirkorlikni samarali rivojlantirish va qollab-quvvatlash maqsadida O’zbekiston Respublikasida ko’plab farmonlar va qarorlar qabul qilindi. Shular jumlasidan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari tog’risidagi» O’zbekiston Respublikasining qonuni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-193-sonli qarori.

Yurtimizda tadbirkorlikni rivojnaltirishga qaratilgan katta e’tiborni davlatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev tarafidan har yili avgust oyida Tadbirkorlar kuni arafasida o’tkaziladigan Prezidentning tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida masalalarni birgalikda yechish maqsadida o’tkaziladigan uchrashuvining an’anaga aylanganligidan ham ko’rish mumkin.

Jahon tajribasida kichik biznesni rivojlantirishda iqtisodiyotni klasterlash tizimi katta muvaffaqiyat bilan qollanilmoqda. Sanoat klasterlari deganimizda korxonalarning sohalar va hudidi bo’yicha kontsentratsiyalashuvi nazarda tutilib, ularning yuqori ixtisoslashgan guruhni yaratishi tufayli tejamkorlik samarasiga ega bo’lishadi [2].

Klaster siyosati nafaqat xorijiy mamlakatlarda, balki mamlakatimizda ham ta’lim, fan va ishlab chiqarish tashkilotlarining o‘zaro hamkorligi orqali ham mintaqaviy iqtisodiyotning, ham alohida davlatlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishni ta’minlab kelmoqda. Klasterlar nafaqat ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning nazariy o‘zagini, balki so‘nggi innovatsion ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni ham ta’minlaydi. Ayni paytda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha klasterlar doirasida kichik biznesni har tomonlama rivojlantirish imkonini beruvchi davlat dasturlari mavjud.

Xorijiy olimlar bilan bir qatorda O‘zbekiston sanoatida klasterli yondashuvni ilgari surish bo‘yicha M.A.Rahmatov, N.M.Maxmudov, S.M.Qosimov, S.S.G‘ulomov, S.S.Salihov, A.Sh. Bekmurodov, D.Q.Ahmedov, D.Mirzahalilova, G.Zohidov va boshqalar o’z tadqiqot ishlarini olib borishmoqda [3].

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor M.A.Rahmatov asarlarida klaster deganda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini chuqurlashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradigan hamda tezkorlik bilan amalga oshirish imkonini beruvchi yagona texnologik zanjirga birlashgan korxonalar majmui tushuniladi va ular yangi texnologiyalarni amaliyotga joriy etish imkonini beradi [4].

Hozirgi paytda Qoraqalpog’iston Respublikasida ham kichik biznes va tadbirkorlini rivojlantirishda klasterlarni shakllantirish mexanizmlari qollanilmoqda.

2022-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining Qoraqalpog’iston Respublikasi YAHMdagi ulushi 43,9%ni tashkil etdi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 10,4 birlikni tashkil qiladi. Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 20 399 yetdi. 2024-

yilning yanvar-fevral oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 1 626,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023–yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 8,4 % ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 97,0 % ni tashkil etdi.

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 55,4 %), Taxiatosh (12,1 %), Qo‘ng‘irot (4,6 %), Xo‘jayli (3,2 %),Amudaryo va To‘rtko‘l (2,9 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Eng pas ko‘rsatkich esa Bo‘zatov (0,8 %), Mo‘ynoq (0,9 %) hamda Shumanay (1,1 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida 615 ta, sanoat tarmog’ida 335 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 444 ta, qurilish tarmog’ida 160 ta, yashash va ovqatlanishda 84 ta, tashish va saqlashda 30 ta tashkil etilgan.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida Qoraqalpog’iston Respublikasida zamonaviy agrosanoat klasterlari ham tashkil etilmoqda. “Qoraqalpoqpaxtasanoat hududiy birlashmasi” AJ mas'uliyati cheklangan jamiyat “Qoraqalpog`iston agrocluster” zamonaviy agrosanoat klasteri shaklida qayta tashkil etildi.

2018-yilda “Buston Cluster” MChJ Qoraqalpog‘iston Respublikasida birinchi bo‘lib o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Klasterga 10195 gektar yer ajratilgan, shundan 2147 gektar klasterga, 8048 gektar 224 fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi. Klaster tashkil topganidan buyon paxta hosildorligi 18,5 ts/ga dan 30,5 s/ga gacha ko‘tarildi (12 ts/ga o‘sish). Ayni paytda klaster Ellikqal’a tumanidagi paxta tozalash zavodini qo‘lga kiritdi va hozirda klasterda xomashyoni uzluksiz qayta ishlash zanjiri ketma-ketligi to‘liq yo‘lga qo‘yildi.

Ta'kidlash joizki, klasterlarni shakllantirishdan maqsad shahar, tuman, viloyat hududida joylashgan va ular bilan ta'lim, ilmiy, muhandislik, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va ishlab chiqarishning yagona texnologik zanjirida joylashgan bir tarmoq korxonalarini birlashtirishdan iborat; boshqa xizmatlar, innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh mahsulotlar yaratish. Shu bilan birga, klasterlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari turli darajadagi boshqaruv sub'ektlari va ob'ektlari o'rtasida muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lobova S.V., Ponkina E.V. Mintaqalararo klasterlar faoliyatining nazariy jihatlari // Iqtisodiy tahlil: nazariya va amaliyot. 2012 yil. 17-son. B.35-44.

2. Porter M., Raqobat. M.: Uilyams nashriyoti, 2003 yil. 608 bet.

3. Xoliqova, R. (2022). O‘zbekistonda paxta-to‘qimachilik klasterlari samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot va ta’lim, 23(4), 250–255. https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/593 dan olindi

4. Murtazo Rahmatov – Klaster: Integratsiya, innovatsiyalar, iqtisodiy o‘sish. Xalq so'zi. 03/03/2018.